

UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN PEDAGOGIK MAHORATDAN MALAKA SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

KIRISH

XXI asr - tez sur‘atlar bilan kechayotgan global o‘zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng kirib kelishi davri. Bunday sharoitda o‘qituvchidan nafaqat mustahkam **pedagogik-psixologik bilimlar** va **fanini chuqur bilish**, balki **pedagogik mahorat**, **keng tafakkur**, **tanqidiy va mulohazali fikrlash**, **raqamli savodxonlik**, **muloqot va hamkorlik** ko‘nikmalari, **axloqiy-huquqiy madaniyat** hamda **inklyuziv yondashuv** talab etiladi.

Pedagogik mahorat — o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonini samarali rejalashtirish, o‘qitish metodlarini oqilona tanlash, o‘quvchi yutuqlarini baholash va mazmunli qayta aloqa berish, xavfsiz hamda rivojlantiruvchi muhit yaratish, tarbiyaviy faoliyatni tizimli yo‘lga qo‘yish hamda uzluksiz kasbiy o‘sishni ta’minlashdagi integral salohiyatidir. Ushbu mahorat o‘qituvchining jamiyatdagi obro‘-e’tiborini mustahkamlaydi, o‘quvchilarda esa ustozga nisbatan chuqur hurmat va ishonchni shakllantiradi.

Pedagog kadrlarning pedagogik mahoratini aniqlovchi sinov jarayonlari ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarning kasbiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlash va ularning pedagogik mahoratini xalqaro standartlarga mos tarzda baholash imkonini beruvchi muhim mexanizmdir.

I. Maqsad

Mazkur spetsifikatsiyaning asosiy maqsadi — pedagog kadrlarning pedagogik mahoratini ishonchli, adolatli va shaffof tarzda baholashni tashkil etishdan iborat.

Ushbu hujjat test variantlarining strukturasi, qamrovi va kognitiv darajalari, baholash mezonlari, ma’muriy tartib-qoidalari kabi jihatlarni belgilab beradi hamda pedagog kadrlarning bilim, ko‘nikma va munosabatlarini kompleks baholash orqali ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga turtki bo‘lib xizmat qiladi.

*Spetsifikatsiya aprobatsiya natijalariga ko‘ra muntazam **takomillashtirilib**, zarur qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritib boriladi.*

II. O‘qituvchilarning pedagogik mahorati bo‘yicha bilimlarini baholash uchun test sinovlari bilan qamrab olingan mazmun sohalari

O‘qituvchilarning pedagogik mahorati bo‘yicha bilimni baholashda test topshiriqlari quyidagi pedagogik mahorat tarkibiy qismlarini qamrab oladi:

1. Pedagogik odob
2. Pedagogik qobiliyat

3. Pedagogik muloqot madaniyati va nutq texnikasi
4. Pedagogik refleksiya
5. Kommunikativ ta'sir ko'rsatish
6. Pedagogik takt (nazokat)
7. Pedagogik texnika
8. Pedagogik ijodkorlik
9. Pedagogik tajriba
10. Pedagogik madaniyat

III. Pedagogik mahoratdan bilimlarni baholashda qamrab olinadigan konstruktlar

№	Talablar	Konstruktlar
1	Pedagogik odob	O'qituvchining o'ziga, kasbiga, jamiyatga, o'quvchilarga va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan munosabatda bo'lishiga qo'yiladigan axloqiy talablarni bilish va amaliyotda qo'llash
2	Pedagogik qobiliyat	Pedagogik faoliyatni oqilona tashkillashtirishni bilish, amaliyotda qo'llay olish, uning olib borilishiga imkon beradigan amaliy vazifalarni farqlash
3	Pedagogik muloqot madaniyati va nutq texnikasi	Pedagogik odob hamda muloqot talablarini bilish, farqlash, amaliyotda qo'llash, vaziyatga muvofiq mulohaza yuritish. Nutq tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazishda qo'llaniladigan vositalar majmuini bilish va joyida qo'llay olish
4	Pedagogik refleksiya	O'z xatti - harakatlari va ularning qonuniyatlarini bilish va farqlash, ma'naviy dunyosining o'ziga xos yashirin xislatlarini ochib beradigan o'z-o'zini bilishga va anglashga qaratilgan nazariy faoliyatni tahlil qila bilish
5	Kommunikativ ta'sir ko'rsatish	O'quvchilar bilan muloqotda bo'lish, ularga to'g'ri yondashish, pedagogik nazokat bilan ularga tarbiyaviy, ifodaviy va emotsional ta'sir eta olishni bilish, ta'sir etish yo'llarini farqlash, mulohaza yuritish, vaziyatga mos ravishda qo'llay olish
6	Pedagogik takt (nazokat)	Pedagogning o'quvchilar bilan turli faoliyat shakllari bo'yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar hamda xulq-atvor qoidalariga rioya qilishni bilish, ularga to'g'ri yondashuvni qo'llay olish
7	Pedagogik texnika	O'qituvchi va o'quvchilar jamoasiga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarini bilish, ularni amalda qo'llay olish
8	Pedagogik ijodkorlik	O'qituvchining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda vaziyatga mos ravishda yaratuvchanlikni

		qo'llay olish, mulohaza yuritish
9	Pedagogik tajriba	Faoliyatni tashkil etish jarayonini bilish, rejalash, baholash, didaktik qonuniyatlarni, ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olish va mulohaza yuritish
10	Pedagogik madaniyat	O'qituvchining kasbiy vazifalarni hal qilish usul va vositalarini bilish, axborot va raqamli madaniyat, texnika va madaniyatni vaziyatga nisbatan qo'llash, mulohaza yuritish

Test sinovlari yordamida o'qituvchining pedagogik mahorati bo'yicha bilimlarni baholashda quyidagi aqliy faoliyat turlari baholanadi:

1. Bilish,
2. Qo'llash,
3. Mulohaza yuritish.

IV. O'qituvchining pedagogik mahorati bo'yicha attestatsiyadan o'tkazishda bilimlarni baholash uchun ishlatiladigan test turlari:

Y 1 – to'rtta javob variantli, bitta to'g'ri javobli yopiq test.

Y 2 – bir nechta javobli yopiq test;

Y 3 – moslikni tanlashga oid yopiq test;

Eslatma: texnik imkoniyatlar tufayli testning ayrim turlari o'zgarishi mumkin.

V. O'qituvchilar uchun pedagogik mahoratdan testlar spetsifikatsiyasi.

Mazmun soha	Bo'lim	Topshiriq soni	Baholana digan aqliy faoliyat turi	Test turi
Pedagogik odob	Dilkashlik pedagogikada axloq va odobning muhim xususiyatlaridan biri. O'qituvchining xushmuomalaligi va dilkashligi global insonparvarlik jarayoni.	1	Qo'llash	Y1
Pedagogik qobiliyat	Qobiliyatning pedagogik - psixologik tasnifi. O'qituvchi intellektiga tavsifnoma. O'qituvchi pedagogik qobiliyatini rivojlantirish funksiyalari. Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari va xususiyatlari.	1	Qo'llash	Y1
Pedagogik muloqot madaniyati va	Pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari. Notiqlik san'atining paydo bo'lish	1	Bilish	Y2

nutq texnikasi	tarixi. Nutqning asosiy xususiyatlari. Til va nutq. O'qituvchining nutq madaniyati va notiqlik san'ati. Nutq texnikasini egallash. Tovush, diapazon, tembr, diksiya, ritmika.			
Pedagogik refleksiya	Kasbiy refleksiya va pedagogik faoliyat. O'qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirishda pedagogik refleksiyaning ahamiyati. Pedagogik tashxislash asosida o'qituvchining kasbiy rivojlanishini ta'minlash usullari. O'qituvchi faoliyatini pedagogik tashxislash.	1	Bilish	Y1
Kommunikativ ta'sir ko'rsatish	O'qituvchi shaxsining fikr almashuvi bilan bog'liq xususiyatlari. O'qituvchini ishontrish. O'qituvchi ongiga ta'sir. Pedagogik ta'sir ko'rsatish - kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatida so'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish. Pedagogik nizolarni hal qilish.	1	Mulohaza	Y1
Pedagogik takt (nazokat)	Pedagogik nazokat haqida tushuncha. Pedagogik nazokatning mohiyati va xususiyatlari. Pedagogik nazokatni egallash malakalari. O'qituvchi nazokatida dilkashlik va pedagogik takt.	1	Qo'llash	Y2
Pedagogik texnika	Pedagogik texnika haqida ma'lumot. Pedagogik texnika komponentlari. Pedagogik texnika xususiyatlari. Pedagogik texnikani namoyon etishda o'qituvchining tashqi ko'rinishi. Pedagogik texnika tizimidagi mimik, pantomimik holatlar. Pedagogik texnikani egallash mahorati.	1	Qo'llash	Y1

Pedagogik ijodkorlik	Ta'lim jarayonida o'qituvchiga qo'yiladigan talablar va ijodiy kayfiyatni boshqarish. Ta'lim jarayoniga o'qituvchining kreativ yondashuvi.	1	Mulohaza	Y1
Pedagogik tajriba	Hozirgi zamon o'qituvchisining pedagogik faoliyati. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi kasbiy omilkorligi. O'qituvchining ta'lim jarayonidagi faoliyati va darsga tayyorgarligi. Didaktik qonuniyatlar. Blum taksonomiyasi darajalari.	1	Qo'llash	Y3
Pedagogik madaniyat	O'qituvchining "axborot madaniyati" tushunchasini o'zlashtirishi. Pedagogik muloqotda muomala madaniyati. O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyatining shakllanishi.	1	Mulohaza	Y1
Jami		10		

***Eslatma:** yuqoridagi ko'rsatkichlar (testlar soni, qaror qabul qilish vaqti, ball, qiyinlik darajasi,) sinov natijalariga qarab o'zgarishi mumkin.*

VI. O'qituvchining pedagogik mahorati bo'yicha bilimlarni baholash uchun test sinovlari qismlari bo'yicha qiyosiy ko'rsatkichlar

№	Test sinovlari qismlari	Qamrab olingan mazmun sohalari	Topshiriq soni	Ajratilgan vaqt	Ajratilgan ball	Baholanadigan aqliy faoliyat
II.	O'qituvchining pedagogik mahorati bo'yicha bilimlarini baholash	I – X	10	20 daqiqa	20 ball	Bilish - 2 Qo'llash -5 Mulohaza yuritish - 3

VII. Pedagogik mahorat bo'yicha bilimlarini baholash uchun test tizimining topshiriqlarini baholash mezonlari

Har bir sinov test turiga qarab turli xil baholash mezonlariga ko'ra baholanadi:

- agar belgilangan javob to'g'ri bo'lsa, 2 ball;
- agar belgilangan javob noto'g'ri bo'lsa, 0 ball.

VII. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:

1. A.Xoliqov *“Pedagogik mahorat” darslik, Toshkent-2011, “Iqtisod-moliya” nashriyoti.*
2. I.R.M.Kadirova, S.U.Bichurina, I.V.Morxova *“Педагогическая психология” T-2025 o‘quv qo‘llanma*
3. M.X.Toxtaxodjayeva, *“Pedagogik mahorat” darslik, Toshkent-2010.*
4. A.Q.Munavvarov *“Pedagogika” o‘quv qo‘llanma Toshkent-1996, O‘qituvchi nashriyoti.*
5. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, D.I.Ro‘ziyeva, M.H.Usmonboyeva. *“Pedagogika” nopedagogik oliy ta‘lim muassasalari uchun darslik, Toshkent-2016, Nizomiy nomidagi TDPU.*
6. Aliqulova M.M., *“Innovatsion pedagogika” uslubiy qo‘llanma, Toshkent-2012, Iqtisodiyot universiteti – TDIU nashriyoti.*
7. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev, *“Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o‘quv-metodik qo‘llanma, Toshkent-2015, “Sano-standart” MCHJ bosmaxonasi.*
8. N.Maxmudov, *“O‘qituvchi nutq madaniyati” darslik, Toshkent-2007, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.*
9. F.O.Mirzayeva *“Pedagogika nazariyasi va tarixi” darslik, Toshkent-2023, “Innovatsion rivojlanish” nashriyoti.*
10. B.X.Xodjayev, N.Sheyxovskaya, I.Morxova, S.X.Koneva *“Pedagogika” T-2024 darslik*

VIII. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy normativ-huquqiy asoslar:

1. PF-5712 (29.04.2019) — *O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi*
2. PQ-4860 (13.10.2020) — *2020-2025-yillarda xalq ta‘limi tizimida inklyuziv ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasi*
3. O‘RQ-637 (23.09.2020) — *“Ta‘lim to‘g‘risida” Qonun (ta‘lim tizimining umumiy huquqiy bazasi)*
4. PF-134 (11.05.2022) — *2022 — 2026-yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida*
5. PF-79 (26.05.2023) — *Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida*